

**Jurayev Bahodirxon Jahongirxon o‘g‘li**

Farg‘ona shahar 19-ixtisoslashtirilgan

davlat umumta’lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

## **MUMTOZ ADABIYOTDA NAIZRA VA TATABBU<sup>1</sup>**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan salaflarga ergashib asar yaratishning o‘ziga xos jihatlari, xususan, nazira, tatabbu’lar haqida qisqacha so‘z yuritilgan. Bunday izdoshlikda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlarga ham e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** mumtoz adabiyot, salaflar, nazira, tatabbu’, bayt, misra, lirika, an’anaviylik.

## **NAIZRA AND TATABBU IN CLASSICAL LITERATURE**

**Annotation:** This article briefly talks about the peculiarities of creating a work following the predecessors common in our classical literature, in particular, nazira, tatabbus. Such a following also focuses on aspects to be respected.

**Keywords:** classical literature, predecessors, nazira, tatabbu’, beit, misra, lyric, traditionalism.

## **НАИЗРА И ТАТАББУ В КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

**Аннотация:** В этой статье кратко рассказывается об особенностях создания произведения вслед за широко распространенными в нашей классической литературе предшественниками, в частности, назира, татаббу. В такой последовательности также уделяется внимание аспектам, на которые следует обратить внимание.

**Ключевые слова:** классическая литература, предшественники, назира, татаббу, строфа, строфа, лирика, традиционализм.

O‘zbek mumtoz adabiyotida salaflardan keying avlod uchun o‘tib kelayotgan an’analar mavjud bo‘lib, ijodkorlar bu an’analarni o‘ziga xos tarzda davom ettiradi va yangicha qarashlar bilan boyitib keldilar. Mumtoz she’riyatimizda ko‘p asrlardan beri rivojlanib kelayotgan o‘zidan oldin yaratilgan lyrik asarlarga o‘xshatib asarlar yozish an’anasi lirik janrlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biz quyida shularning ayrimlari, xususan, naziralar va tatabbu’lar haqida qisqacha so‘z yuritmoqchimiz.

“Nazira – (arabcha o‘xhash narsa) o‘tgan yoki zamondosh shoirlar asarlariga o‘xshatma, javob tariqasida yaratilgan asar. Shoир nazira yaratish ekan, biror asarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilmaydi, unga ijodiy yondashadi, asar mazmunini rivojlantiradi, g‘oyaviy motivlari, obrazlarini boyitadi, badiiy qimmatini oshiradi. Shu bilan u asarga o‘z davri, tarixiy sharoiti va adabiy muhitini ruhini kiritadi” [1.165].

O‘zbek mumtoz she’riyatining mashhur vakillari – Alisher Navoiy, Husayniy – Husayn Boyqaro, Mashrab, Furqat kabilarning bu sohada mohirona qalam tebratganlari ma’lum. Alisher Navoiyning fors tilida yozilgan “Devoni Foniy” asari naziralar to‘plamidir. Alisher Navoiy mazkur asari bilan o‘zbek adabiyotida fors-tojik tilida yaratilgan nazirachilikning asoschisi sifatida tarixda qoldi. Nazira sifatida asar yaratish ayniqsa adabiy muhitlarda anchayin keng

tarqalgan. Adabiy muhitlarning asoschilari yoki ko‘zga ko‘ringa vakillariga ergashib nazirlar yozish Hirot, Qo‘qon, Xiva Buxoro adabiy muhitida anchayin keng tarqalgan. Misol uchun Hirot adabiy muhitida yaratilgan ko‘plab asarlar Alisher Navoiy, Qo‘qon adabiy muhitida Umarxon va Nodiralarga, Xiva adabiy muhitida esa Feruz asarlariga ko‘plab nazirlar yozilganligi ham fikrimizni quvvatlantiradi.

Qo‘qon adabiy muhitek mumtoz adabiyotida tatabbu’ atamasi ham keng qo‘llaniladi. Mazkur atama naziraga yaqin tursa-da, undan farq qiladi. Tatabbu’ – (arabcha ergashmoq) ijodkorning biron bir shoирга ehtiromi belgisi sifatida yoki bellashish, musobaqalashish maqsadida uning biron asariga yozilgan javobi. Javob o‘sha asar mavzusi, vazni, qofiya tizimi doirasida yozilishi shart bo‘lgan. Tatabbu’lar she’riyatning istalgan janri yo shakli – farddan tortib dostongacha yozilishi mumkin. Adabiyotimizda tatabbu’lar g‘azal va doston shakllarida bitilgan [1.253].

Qo‘qon adabiy muhitida nazirachilik boshqa adabiy muhitlarga nisbatan anchayin keng rivojlandi. Hamza Hakimzoda Niyoziy 1927-yilda yozilgan she’ri “O‘zbek xotini tilidan” mumtoz adabiyotimizning zbardas vakili Mashrabning “Dastingdan” radifli muxammasiga nazira tarzida yozilgan. Hamza Mashrab she’rining vazni, qofiyasi va radifini saqlagan holda yozgan mazkur she’ri musaddas tarzida yaratadi. Mashrab esa muxammas tarzida bayon qiladi.

Mashrab muxammasida aytishicha, uni ko‘zining oqidek mehribon, ruhi ravoni, dilining quvvati bo‘lgan yoridan ayirdilar. Oshiq chamanda bulbul kabi oshiyonsiz, hatto vayronalardan ham makon topa olmaydi. Yaqinidan, azizidan judo bo‘lib, boshida suyanchig‘i yo‘q oshiq hech kimni o‘zining holatiga tushishini xohlamaydi. Bu yorug‘ olam ham ko‘ziga tordek bo‘lib ko‘rinadi. Ammo u yaratgandan umid uzmaydi. Hayotga ishonch-umid bilan boqadi, himmat yo‘liga yetishlikni orzu qiladi:

Iloho, menga yetkurgaymukin xurshidi matlabni,

Saodat vaqtida boshimg‘a chun iqboldi kavkabni,

Iloho, sen yetur himmat yo‘lig‘a xasta Mashrabni,

Hama obod bo‘ldi, bo‘lmadim obod dastingdin,

Ki men har qayg‘a borsam, dod etarman, dod dastingdin [2.185].

Hamza Hakimzoda Niyoziy musaddasida esa zamona zaylidan noligan, ozodlikka chiqishni orzu qilgan ayolning dardu hasratlari ifoda qilingan.

Yosh umri jovidonlar bo‘ldi chun barbod, dastingdan,

Asir qoldiq jahonda, bexabar ustod, dastingdan [3.193].

deya tuzimdan aziyat chekkan ayollarning ijtimoiy masalalarni bayon qiladi.

Mashrab muxammasida

Hama obod bo‘ldi, bo‘lmadim obod dastingdin,

Ki men har qayg‘a borsam, dod etarman, dod dastingdin

bayti takrorlanadi.

Hamza nazirasida esa

Hama ozod bo‘ldi, bo‘lmadik ozod dastingdan,

Bugun Baynalmilalga dod etarmiz, dod etarman, dod dastingdan

tarzida takrorlanadi.

Mashrab muxammasida ayol – yor an'anaviy ko‘rinishda, oshiqqa mehr ko‘rsatmaydigan ma’shuqa sifatida gavdalanadi (Mashrab muxammasida tasavvufiy iarashlar aks etgan). Hamza musaddasida esa ma’rifatga, ilmga erishmoqchi bo‘lgan ayol gavdalanadi. Mashrab she’rida aks etgan mavzu Hamza ijodida yangicha ma’noda yangraydi.

Demak, nazira hamda tatabbu’ bir-biridan farq qiladigan adabiy tushunchadir. Nazirada tarixiy sharoiti va adabiy muhit ruhi aks etadi, tatabbu’da esa asar mavzusi, vazni, qofiya tizimi doirasida yozilishi shart bo‘ladi. Nazirada mavzu, mazmun va shaklga ijodiy qaraladi, g‘oyadagina emas, balki badiiy shaklda ham o‘zgarish ro‘y beradi. Tatabbu’da esa mashhur shoirning g‘azaliga yoki ijodiga oid asariga uning qofiyasi va vazni saqlanib, javob tariqasida yoziladigan asarga aytildi.

### **Foydalanimgan adabiyotlar:**

1. Ф.Салиев, Г.Курбониёзов. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2010.
2. Машраб. Тошкент. F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1971.
3. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. 2-том. Тошкент. 1988.